



DAVLAT XARIDLARI MOLIVAVIY MEKANIZMI SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INTEGRAL METODIKASI VA EKONOMETRIK BAHOLASH

Xamdamov Sardor Farmon o'g'li,

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi (DSc).

E-mail: sardorxamdamov@gmail.com

ORCID: 0009-0001-5072-7342

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v19iA.1793>

MAQOLA HAQIDA/О СТАТЬЕ

Qabul qilindi: 17-avgust 2026-yil

Tasdiqlandi: 19-avgust 2026-yil

Jurnal soni: 19-A

Maqola raqami: 30

KALIT SO'ZLAR/КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

integral indeks, samaradorlikni baholash, ekonometrik model, narx pasayishi, chiziqli ehtimollik modeli, lot darajasidagi ma'lumotlar, davlat xaridlari

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Maqolada davlat xaridlari moliyaviy mexanizmi samaradorligini baholashning integral metodikasi ishlab chiqilgan va uning tarkibidagi farazlar yirik sanoat kompaniyasining lot darajasidagi ma'lumotlarida ekonometrik tekshirilgan. Metodika moliyaviy mexanizmning to'rt bloki (narx, to'lov-hisob, raqobat, nazorat) bo'yicha sakkiz ko'rsatkichni yagona integral indeksga birlashtiradi. Ekonometrik qismda 2023–2026-yillardagi 11 ta hisobot kesimini qamragan 8566 lotli birlashgan tanlamada ikki model baholangan: narx pasayishi modeli lot hajmining teskari ta'sirini (koeffitsiyent -1.00 ; $t=-3.72$) va vaqt bo'yicha pasayish trendini (-0.17 foiz bandi oy; $t=-7.76$) tasdiqladi; chiziqli ehtimollik modeli nolinch-pasayish ehtimolining oyiga 1,03 foiz bandiga barqaror o'sishini ($t=23.7$) ko'rsatdi. Natijalar integral indeks vaznlarini asoslashga tatbiq etilgan.

Tadqiqotning asosiy maqsadi davlat xaridlari moliyaviy mexanizmi samaradorligini kompleks baholash imkonini beruvchi integral metodikani ishlab chiqish va uning tarkibiy farazlarini real lot darajasidagi ma'lumotlar asosida ekonometrik jihatdan tekshirishdan iborat. Taklif etilayotgan metodikada moliyaviy mexanizmning narx, to'lov-hisob, raqobat va nazorat bloklari o'zaro bog'liq holda qaralib, ularni tavsiflovchi sakkizta ko'rsatkich yagona integral samaradorlik indeksiga keltiriladi. Ko'rsatkichlarni birlashtirishda ularning yo'nalishi, o'lchov birliklari va iqtisodiy mazmuni hisobga olinib, normallashtirish hamda vaznlash protseduralaridan foydalaniladi.

ABOUT THE PAPER

Accepted: 17 August 2026

Approved: 19 August 2026

Volume: 19-A

Paper number: 30

KEYWORDS

integral index, effectiveness assessment, econometric model, price reduction, linear probability model, lot-level data, public procurement

ANNOTATION

The article develops an integral methodology for assessing the effectiveness of the financial mechanism of public procurement and econometrically tests its underlying hypotheses on lot-level data of a large industrial company. The methodology combines eight indicators across four blocks of the financial mechanism (pricing, settlement, competition, control) into a single integral index. In the econometric part, two models are estimated on a pooled sample of 8,566 lots covering 11 reporting snapshots in 2023–2026: the price reduction model confirms the negative effect of lot size (coefficient -1.00 ; $t=-3.72$) and a declining time trend (-0.17 pp per month; $t=-7.76$); the linear probability model shows a steady increase in the probability of zero reduction by 1.03 pp per month ($t=23.7$). The results are applied to substantiate the weights of the integral index.

The main objective of the study is to develop an integrated methodology for comprehensively assessing the effectiveness of the financial mechanism of public procurement and to empirically test its underlying hypotheses using real-world lot-level data. The proposed methodology considers four interrelated components of the financial mechanism – pricing, payment and settlement, competition, and control –and integrates eight indicators characterizing these components into a single composite efficiency index. In combining the indicators, their direction, units of measurement, and economic significance are taken into account through normalization and weighting procedures.

Kirish

Avvalgi tadqiqotlarimizda davlat xaridlari moliyaviy mexanizmining besh blokli nazariy konstruksiyasi asoslangan [1], uning amaldagi holati esa narx [2], moliyalashtirish [3] va risklar [4] kesimida empirik tashxis qilingan edi. Mazkur tadqiqotda ushbu nazariy konstruksiya lot darajasida o'lchanishi mumkin bo'lgan indikatorlar asosida operatsionlashtirildi. Bunda moliyalashtirish va to'lov-hisob jarayonlari ma'lumotlarning mavjudligi hamda o'lchash imkoniyatidan kelib chiqib yagona "to'lov-hisob" blokida birlashtirildi, risk va nazoratga oid o'lchanuvchi jihatlar esa "nazorat" bloki tarkibida aks ettirildi. Shu tariqa nazariy jihatdan ajratilgan besh yo'nalish empirik baholash uchun to'rtta o'lchanadigan blokka jamlandi.

Tadqiqotning maqsadi davlat xaridlari moliyaviy mexanizmi samaradorligini baholashning integral metodikasini ishlab chiqish hamda uning asosidagi tayanch farazlarni lot darajasidagi ma'lumotlar asosida ekonometrik tekshirishdan iborat. Mazkur yondashuv yakka "tejamkorlik foizi" bilan cheklanib qolmasdan, raqobat, to'lov-hisob jarayonlari va nazorat sifatini ham samaradorlikning tarkibiy qismlari sifatida baholash imkonini beradi.

Tashxisning bosh xulosasi – samaradorlikni yakka "tejamkorlik foizi" bilan o'lchash metodologik xato ekani: u raqobatli va raqobatsiz segmentlarni farqlamaydi va tarkibiy siljishlarni yashiradi. Mazkur maqolaning maqsadi – samaradorlikni baholashning integral metodikasini

ishlab chiqish hamda uning zamiridagi farazlarni lot darajasidagi ma'lumotlarda ekonometrik tekshirishdan iborat. Bu dissertatsiya tadqiqotining markaziy metodologik natijasi hisoblanadi.

Shu nuqtayi nazardan, davlat xaridlari samaradorligini baholashda nafaqat xarid natijasida erishilgan narx tejamkorligi, balki moliyaviy mexanizmning boshqa tarkibiy elementlari – to'lov-hisob intizomi, moliyalashtirish shartlari, raqobat muhiti va nazorat samaradorligini birgalikda hisobga olish zarur. Bunday yondashuv xarid jarayonining turli bosqichlarida yuzaga keladigan moliyaviy natijalarni yagona mezon asosida umumlashtirish imkonini beradi. Ayniqsa, yirik sanoat kompaniyalari xaridlarida lotlarning qiymati, ishtirokchilar soni, narx pasayishi va shartnoma shartlarining sezilarli darajada farqlanishi integral baholash metodikasidan foydalanishni taqozo etadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi davlat xaridlari moliyaviy mexanizmi samaradorligini bir nechta o'zaro bog'liq ko'rsatkichlarni umumlashtiruvchi integral indeks orqali baholash yondashuvini taklif etish va ushbu indeksni lot darajasidagi real ma'lumotlar asosida ekonometrik jihatdan sinashda namoyon bo'ladi. Mazkur yondashuv samaradorlikning faqat yakuniy moliyaviy natijasini emas, balki unga ta'sir qiluvchi raqobat, to'lov, moliyalashtirish va nazorat omillarini ham kompleks ravishda aks ettiradi.

Tadqiqot doirasida integral baholashning tarkibiy ko'rsatkichlari aniqlanib, ularning o'zaro bog'liqligi va samaradorlikka ta'siri statistik

hamda ekonometrik usullar yordamida tekshiriladi. Bunda lot hajmi, boshlang'ich va yakuniy narx o'rtasidagi farq, raqobat darajasi hamda vaqt omilining xarid samaradorligiga ta'siri alohida baholanadi. Natijalar davlat xaridlari moliyaviy mexanizmini takomillashtirish, samaradorlikni monitoring qilish va xarid siyosatida dalillarga asoslangan boshqaruv qarorlarini shakllantirish uchun metodik asos yaratadi.

Adabiyotlar sharhi

Davlat xaridlarining moliyaviy mexanizmini tadqiq etishda uning alohida moliyaviy operatsiyalar yig'indisi emas, balki xarid jarayonining moliyaviy natijasini shakllantiruvchi o'zaro bog'liq elementlar tizimi sifatida qarash muhimdir. Xamdarnom tomonidan ishlab chiqilgan nazariy yondashuvda davlat xaridlarining moliyaviy mexanizmi tarkibiy elementlari, ularning o'zaro aloqasi va amal qilish tamoyillari tizimlashtirilgan [1]. Mazkur yondashuv integral samaradorlik ko'rsatkichini shakllantirish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Davlat xaridlarida samaradorlikning muhim tarkibiy qismlaridan biri narx shakllanishi va raqobat muhitidir. Xamdarnomning sanoat kompaniyalari xaridlari bo'yicha tadqiqotida lotlar kesimida boshlang'ich va yakuniy narxlar, narx pasayishi hamda ishtirokchilar faolligi tahlil qilinib, tejamlorlik ko'rsatkichining o'zi xarid samaradorligini to'liq ifodalamasligi ko'rsatiladi [2]. Bu natija integral baholashda narx blokini alohida, biroq boshqa bloklar bilan bog'liq holda hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Xaridlarning moliyaviy samaradorligini baholashda moliyalashtirish manbalari va ularning tarkibi ham muhim ahamiyatga ega. Xamdarnomning tadqiqotida yirik sanoat kompaniyalarida davlat xaridlarini moliyalashtirishning amaldagi holati tahlil qilinib, xarid moliyasining shakllanishi korxonaning moliyaviy imkoniyatlari va xarid jarayonidagi to'lov shartlari bilan chambarchas bog'liqligi asoslangan [3]. Shundan kelib chiqib, integral metodikada moliyalashtirish samaradorligini xaridning yakuniy natijasini belgilovchi mustaqil blok sifatida baholash mumkin.

To'lov intizomi va moliyaviy risklar davlat xaridlarining samaradorligiga bevosita ta'sir qiluvchi yana bir muhim yo'nalishdir. Xamdarnom tomonidan sanoat korxonalarining davlat xaridlarida to'lov intizomi va moliyaviy risklar o'rganilib, kechiktirilgan to'lovlar, likvidlik bilan bog'liq muammolar hamda kontrakt majburiyatlarini bajarish risklari moliyaviy mexanizm samaradorligining muhim indikatorlari sifatida ko'rib chiqilgan [4]. Ushbu yondashuv integral indeks tarkibida to'lov-hisob blokini shakllantirish zaruratini asoslaydi.

Xalqaro amaliyotda davlat xaridlari tizimini baholashning kompleks yondashuvlaridan biri MAPS metodologiyasidir. Unda xarid tizimini faqat xarid qilingan mahsulot yoki xizmat qiymati bilan emas, balki normativ baza, institutsional salohiyat, xarid amaliyoti, bozor faoliyati va nazorat mexanizmlari orqali kompleks baholash taklif etiladi [5]. Mazkur metodologiya davlat xaridlari samaradorligini ko'p mezonli baholash zarurligini tasdiqlaydi.

OECD davlat xaridlari bo'yicha tavsiyasida samarali xarid tizimining asosiy tamoyillari sifatida shaffoflik, raqobat, samaradorlik, risklarni boshqarish, hisobdorlik va nazorat mexanizmlarini ajratib ko'rsatadi [6]. Ushbu tamoyillar integral metodikaning nazariy mazmunini kengaytirib, moliyaviy samaradorlikni faqat xarajatlarni kamaytirish emas, balki xarid

jarayonining umumiy sifatini ifodalovchi ko'rsatkich sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Davlat xaridlarida yashirin manfaatlar va korrupsiya risklarini aniqlash masalasi ham samaradorlikni baholash metodikasining muhim qismidir. Fazekas va Kocsis xarid ma'lumotlari asosida yuqori darajadagi korrupsiya xavfini aniqlash imkonini beruvchi indikatorlardan foydalanishni taklif qilgan [7]. Ushbu tadqiqot xarid jarayonidagi raqobatning cheklanishi va noodatiy kontrakt xususiyatlarini risklarni baholash bilan bog'lash mumkinligini ko'rsatadi. Shu sababli integral indeksda nazorat va risk blokining mavjudligi metodik jihatdan asoslangan hisoblanadi.

O'zbekistonda yirik sanoat kompaniyalari davlat xaridlarining lot darajasidagi ochiq ma'lumotlari esa mazkur nazariy yondashuvlarni empirik tekshirish imkonini beradi. Xususan, "Uztransgaz" AJning davlat xaridlari bo'yicha ochiq ma'lumotlar to'plamida lotlarning boshlang'ich qiymati, yakuniy shartnoma summasi va boshqa xarid parametrlari mavjud bo'lib, ular asosida narx pasayishi, lot hajmi va vaqt omilining xarid natijalariga ta'sirini ekonometrik baholash mumkin [8].

Shuningdek, zamonaviy davlat xaridlari tadqiqotlarida samaradorlikni baholashda statistik va ekonometrik usullardan foydalanish tobora muhimlashmoqda. Ayniqsa, lot darajasidagi katta hajmdagi ma'lumotlar regressiya modellari yordamida xarid natijalariga ta'sir qiluvchi omillarni ajratib ko'rsatish, ularning yo'nalishi va statistik ahamiyatini baholash imkonini beradi [9]. Bu yondashuv integral indeksni oddiy reyting ko'rsatkichi sifatida emas, balki empirik tekshiriladigan kompleks indikator sifatida shakllantirishga zamin yaratadi.

Shuningdek, xalqaro tadqiqotlarda davlat xaridlarida raqobat darajasi, yetkazib beruvchilar konsentratsiyasi, lotlarning hajmi va xarid natijalari o'rtasidagi bog'liqlikni empirik baholashga alohida e'tibor qaratiladi. Ushbu tadqiqotlarda lot darajasidagi ma'lumotlardan foydalanish xarid samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillarni umumiy agregat ko'rsatkichlardan ko'ra aniqroq ajratib ko'rsatish imkonini berishi ta'kidlanadi. Mazkur yondashuv ushbu tadqiqotda lot hajmi, boshlang'ich narx va vaqt omillarining xarid natijalariga ta'sirini ekonometrik baholash bilan metodologik jihatdan uyg'unlashadi. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlardan farqli ravishda mazkur maqolada ekonometrik natijalar ko'p mezonli integral indeksni shakllantirish bilan bog'lanib, davlat xaridlari moliyaviy mexanizmi samaradorligini yagona kompleks ko'rsatkich orqali monitoring qilish imkoniyati taklif etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Integral indeks to'rt blok bo'yicha sakkiz ko'rsatkichdan quriladi (1-jadval); har ko'rsatkich 0–100 shkalaga normallashtiriladi va blok vaznlari bilan yig'iladi. Ekonometrik tekshirish uchun "Uztransgaz" AJning 2023-yil noyabr – 2026-yil iyul oralig'idagi 11 ta hisobot kesimi birlashtirilib, 8566 lotli tanlama shakllantirildi. Ikki ta model baholandi: (1) narx pasayishi modeli – $SAV = \beta_0 + \beta_1 \cdot \lg(P_0) + \beta_2 \cdot T + \epsilon$, bunda SAV – pasayish foizi, P_0 – boshlang'ich narx, T – vaqt (oylarda); (2) chiziqli ehtimollik modeli (LPM) – $ZERO = \gamma_0 + \gamma_1 \cdot \lg(P_0) + \gamma_2 \cdot T + \epsilon$, bunda ZERO – nolinch-pasayish dummi-o'zgaruvchisi. Baholash eng kichik kvadratlar usulida amalga oshirildi.

Natijalar

1-jadval

Integral indeks tarkibi*

Blok (vazni)	Ko'rsatkich	Yo'nalishi
Narx (0,35)	K1. O'rtacha narx pasayishi (mediana bilan)	yuqorisi yaxshi
	K2. Boshlang'ich narxning tayanch narxdan chetlashuvi	pasti yaxshi
Raqobat (0,30)	K3. Nolinch-pasayish lotlari ulushi	pasti yaxshi
	K4. Yetkazib beruvchilar konsentratsiyasi (top-3 ulushi)	pasti yaxshi
To'lov-hisob (0,20)	K5. O'rtacha to'lov sikli (shartnoma → ijrochiga mablag')	pasti yaxshi
	K6. Muzlatilgan mablag'ning o'rtacha muddati	pasti yaxshi
Nazorat (0,15)	K7. Qo'shimcha kelishuv bilan narx o'zgarigan shartnomalar ulushi	pasti yaxshi
	K8. Oshkor ma'lumotlar to'liqligi (sifat balli)	yuqorisi yaxshi

*Muallif ishlanmasi. Vaznlar bloklarning byudjet samarasiga ta'siri bo'yicha belgilanib, ekonometrik natijalar bilan asoslanadi va pilot davrida aniqlashtiriladi.

Blok vaznlari ularning davlat xaridlari moliyaviy samaradorligiga nazariy va amaliy ahamiyatidan kelib chiqib belgilangan. Ekonometrik natijalar, ayniqsa, narx va raqobat omillarining xarid natijalariga sezilarli ta'sirini tasdiqlaydi. Shu sababli mazkur bloklarga nisbatan yuqoriroq vazn berilgan. To'lov-hisob va nazorat bloklarining vaznlari esa dastlabki

metodik parametr sifatida qabul qilinib, keyingi empirik tadqiqotlar va pilot hisob-kitoblar asosida aniqlashtirilishi mumkin.

Ekonometrik natijalar (2-jadval) metodikaning ikki ta tayanch farazini tasdiqlaydi. Birinchidan, lot hajmi narx pasayishiga statistik ahamiyatli salbiy ta'sir ko'rsatadi: boshlang'ich narx o'n baravar oshganda kutilayotgan pasayish bir foiz bandiga kamayadi ($\beta_1 = -1,00$; $t = -3,72$).



Ikkinchidan, vaqt trendi har ikki modelda kuchli va bir yo'nalishli: o'rtacha pasayish oyiga 0,17 foiz bandiga kamayib borgan ($t=-7,76$), nolinchipasayish ehtimoli esa oyiga 1,03 foiz bandiga o'sgan ($t=23,7$) — bu 32 oy davomida qariyb 33 foiz bandlik o'sish demakdir va tavsifiy statistikada kuzatilgan trendni [2] qat'iy tasdiqlaydi (1-rasm). Modellarning

determinatsiya koeffitsiyenti past (0,01 va 0,06) — lot darajasidagi katta tarqoqlikda bu tabiiy va natijalarni koeffitsiyentlarning ahamiyliligi orqali talqin etamiz; kuzatilmagan omillar (tovar turi, ishtirokchilar soni) keyingi bosqichda modelga kiritiladi.

2-jadval

Regressiya natijalari (N=8566; 11 kesim, 2023–2026 yy.)*

O'zgaruvchi	M1: pasayish % (koef.)	M1: t-stat.	M2: nolinch (koef.)	M2: t-stat.
Ozod had	32,178	17,19	0,108	2,88
lg(boshlang'ich narx)	-1,001	-3,72	-0,010	-1,78
Vaqt trendi (oy)	-0,170	-7,76	0,0103	23,65
R ²	0,010		0,062	



Манба: «Ўзтрансгаз» АЖнинг 2023–2026 йиллардаги 11 та ҳисобот қисми (8566 лот) бўйича муаллиф ҳисоб-китоби

*Муаллиф ҳисоб-китоби. M2 — chiziqli ehtimollik modeli.

1-rasm. Lot hajmining narx pasayishiga ta'siri va raqobatsizlik trendi (model baholari)

Ekonometrik dalillar integral indeks dizayniga uchta aniq xulosa beradi: narx va raqobat bloklarining yuqori vazni asosli (ularda dinamika eng yomon va byudjet ta'siri eng katta); indeks albatta lot o'lchami kesimida hisoblab borilishi kerak (aks holda yirik segmentdagi raqobat zaifligi o'rtachada yashirinadi); vaqt trendi monitoringi indeksning majburiy elementi bo'lishi shart (holat statik emas, yomonlashib bormoqda).

Shunday qilib, ekonometrik natijalar integral indeksni lotlarning hajmi va vaqt dinamikasi kesimida shakllantirish zarurligini asoslaydi. Ayniqsa, yirik lotlardagi raqobatning pasayishi umumiy o'rtacha ko'rsatkichlarda yashirinib qolishi mumkinligi sababli indeksni lot hajmi bo'yicha segmentlashtirib monitoring qilish maqsadga muvofiqdir.

Muhokama

Olingan natijalar davlat xaridlari samaradorligini ko'p mezonli yondashuv asosida baholash zarurligini tasdiqlaydi. Tadqiqotning asosiy farqli jihati shundaki, samaradorlik faqat xarid natijasida erishilgan narx tejamkorligi bilan cheklanmay, raqobat, to'lov-hisob jarayonlari va nazorat sifatini ham qamrab oluvchi yagona integral ko'rsatkich orqali baholanadi. Bu yondashuv davlat xaridlarining moliyaviy mexanizmini tizimli ravishda tahlil qilish imkonini beradi.

Tadqiqotda aniqlangan lot hajmi va narx pasayishi o'rtasidagi manfiy bog'liqlik alohida e'tiborga loyiq. Yirik lotlarda narx pasayishining kamayishi ushbu segmentda yetkazib beruvchilar o'rtasidagi raqobatning cheklanishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bunda yirik lotlarga qo'yiladigan moliyaviy, texnik yoki tashkiliy talablar potensial ishtirokchilar doirasini toraytirishi ehtimoli mavjud. Shu sababli davlat xaridlarini tashkil etishda lotlarni haddan tashqari yiriklashtirishdan qochish, zarur hollarda ularni iqtisodiy jihatdan asoslangan segmentlarga ajratish raqobat muhitini yaxshilashga xizmat qilishi mumkin.

Vaqt trendining ikki modelda ham bir xil yo'nalishda namoyon bo'lishi tadqiqotning yana bir muhim natijasidir. O'rtacha narx pasayishining kamayishi bilan bir vaqtda nolinchipasayish lotlari ulushining ortishi xarid samaradorligining statik emas, balki dinamik jarayon ekanligini ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, davlat xaridlari samaradorligini faqat ma'lum bir davr yakunida hisoblash emas, balki

muntazam monitoring qilish zarur. Integral indeksning vaqt bo'yicha dinamikasini kuzatish xarid tizimidagi salbiy o'zgarishlarni erta aniqlash imkonini beradi.

Natijalar xalqaro amaliyotdagi kompleks baholash yondashuvlari bilan hamohangdir. Xususan, MAPS metodologiyasida davlat xaridlari tizimini baholashda normativ baza, institutsional salohiyat, xarid amaliyoti, bozor faoliyati va nazorat kabi bir nechta yo'nalishlarni birgalikda hisobga olish zarurligi ta'kidlanadi. OECD yondashuvida esa raqobat, shaffoflik, samaradorlik, risklarni boshqarish va hisobdorlik davlat xaridlarining muhim tamoyillari sifatida qoraladi.

Shu bilan birga, mazkur tadqiqot natijalarini talqin qilishda modelning ayrim cheklavlarini hisobga olish lozim. Xususan, determinatsiya koeffitsiyentlarining nisbatan pastligi ($R^2=0,010$ va $R^2=0,062$) lotlar o'rtasidagi yuqori heterojenlik mavjudligini ko'rsatadi. Bunda tovar turi, xarid predmeti, ishtirokchilar soni va boshqa kuzatilmagan omillar narx pasayishi va raqobat natijalariga ta'sir qilishi mumkin. Maqolada ham ushbu omillarni keyingi bosqichlarda modelga kiritish zarurligi qayd etilgan.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari ishlab chiqilgan integral metodikaning davlat xaridlari moliyaviy mexanizmini kompleks baholash uchun amaliy imkoniyatlarini ko'rsatadi. Mazkur metodikani boshqa yirik davlat xarid qiluvchilar ma'lumotlari asosida sinovdan o'tkazish, tovar turlari va ishtirokchilar sonini hisobga olgan kengaytirilgan ekonometrik modellarni qo'llash indeksning ishonchililigi yanada oshiradi. Kelgusida integral indeksni muntazam monitoring vositasi sifatida joriy etish davlat xaridlarida raqobat muhitini yaxshilash, moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va boshqaruv qarorlarini dalillarga asoslangan holda qabul qilishga xizmat qilishi mumkin.

Xulosa va takliflar

Birinchidan, samaradorlikni baholashning to'rt blokli, sakkiz ko'rsatkichli integral metodikasi ishlab chiqildi; u yakka tejamkorlik ko'rsatkichidan farqli ravishda raqobat sifatini, to'lov intizomini va ma'lumotlar sifatini ham qamraydi.

Ikkinchidan, metodikaning tayanch farazlari 8566 lotli tanlamada ekonometrik tasdiqlandi: lot hajmining salbiy ta'siri va raqobatning barqaror pasayish trendi statistik ahamiyatli.

Uchinchidan, natijalar indeks vaznlarini va monitoring dizaynini

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Xamdamov S.F. Davlat xaridlarining moliyaviy mexanizmi: tushunchasi, tarkibiy elementlari va amal qilish tamoyillari // Agrobiznes, fan va texnologiyalar. – 2026. – №7.

2. Xamdamov S.F. Sanoat kompaniyalarining davlat xaridlarida narx shakllanishi va raqobat muhiti // (nashrga taqdim etilgan). – 2026.

3. Xamdamov S.F. Sanoat kompaniyalarida davlat xaridlarini moliyalashtirishning amaldagi holati tahlili // (nashrga taqdim etilgan). – 2026.

4. Xamdamov S.F. Sanoat korxonalarining davlat xaridlarida to'lov intizomi va moliyaviy risklarni baholash // (nashrga taqdim etilgan). – 2026.

5. MAPS: Methodology for Assessing Procurement Systems. – World Bank / OECD, 2018.

6. OECD. Recommendation of the Council on Public Procurement. – Paris: OECD, 2015.

7. Fazekas M., Kocsis G. Uncovering High-Level Corruption // British Journal of Political Science. – 2020. – Vol. 50, No. 1. – P. 155–164.

asosladi. Keyingi bosqichda model boshqa kompaniyalar ma'lumotlari bilan kengaytiriladi, tovar turi va ishtirokchilar soni omillari kiritiladi hamda indeks pilot tartibida hisoblanadi — bu dissertatsiya to'rtinchi bobining asosini tashkil etadi.

8. “Uztransgaz” AJ davlat xaridlari to'g'risidagi ma'lumotlar to'plami // data.egov.uz (murojaat: 25.08.2026)

9. World Bank. *Benchmarking Public Procurement 2020: Assessing Public Procurement Regulatory Systems in 190 Economies*. – Washington, DC: World Bank, 2020.

10. OECD. (2023). Public procurement performance: A framework for measuring efficiency, compliance and strategic goals. OECD Public Governance Policy Papers, No. 36. OECD Publishing, Paris. <https://doi.org/10.1787/0dde73f4-en>.

11. Falagario, M., Sciancalepore, F., Costantino, N., & Pietroforte, R. (2012). Using a DEA-cross efficiency approach in public procurement tenders. *European Journal of Operational Research*, 218(2), 523–529. <https://doi.org/10.1016/j.ejor.2011.10.031>

12. Kacandolli-Gjonbala, D., Shiroka-Pula, J., Berisha-Shaqiri, A., & Osmani, M. (2018). The efficiency of public procurement in the Republic of Kosovo: An econometric approach. *Ekonomika*, 97(2), 70–90. <https://doi.org/10.15388/Ekon.2018.1.11787>